

PROFESSIONAL NUTQIY JANRLARDA QOLIPLASHGAN IBORALAR

Fatxiddinova Iqboloy Faroxiddin qizi¹

¹*Andijon davlat universiteti*

Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998 88 997 17 41

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.05.2025

Revised: 19.05.2025

Accepted: 20.05.2025

ANNOTATSIYA:

Har bir janr o ziga xos qoliplangan iboralar tizimiga ega. Bu qoliplashgan iboralar faqatgina lingvistik jihatdan emas, balki ijtimoiy-pragmatik vazifani ham bajaradi. Ular orqali kasbiy tajriba va amaliyotda shakllangan muloqot an'anasi davom ettiriladi. Ushbu maqolada professional nutqiy janrlarda qoliplashgan iboralarga misollar keltirilgan va tahlili bilan izohlangan.

KALIT SO'ZLAR:

*nutq qoliplari, huquqiy
nutqdagi iboralar, tibbiy
nutqdagi iboralar,
jurnalistik janrdagi
iboralar, stereotiplik.*

KIRISH. Professional nutq janrlarida qoliplashgan iboralar (yoki nutq qoliplari) – bu muayyan ijtimoiy-muloqotiy vaziyatlarda doimiy ravishda ishlatiladigan, shaklan va mazmunan barqaror bo'lgan ifodalar bo'lib, ular rasmiy-professional uslubga xosdir. Bunday iboralar quyidagi janrlarda keng qo'llaniladi: xizmat yozishmalari, huquqiy hujjatlar, diplomatik nutq, tibbiy til, ilmiy maqolalar, sud nutqi, siyosiy chiqishlar va boshqalar⁶⁷.

Qoliplashgan iboralar – bu tilda tez-tez uchraydigan, o'zgarmas yoki kam o'zgaruvchi shaklda qo'llanadigan, muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi barqaror ifodalar bo'lib, ular professional janrlarda alohida ahamiyatga ega. Ushbu iboralar nutqni rasmiylashtiradi, muloqotni tezlashtiradi va tushunishni yengillashtiradi. Tilshunos A. Kunin qoliplashgan

⁶⁷Karimov R. Professional nutqda qoliplashgan birliklarning o'rni vaahamiyati. Filologiya masalalari, vol. 3, no. 1, 2021, pp. 76-85.

iboralarni frazeologizmlar, nutq formulalari, kasbiy shtamplar doirasida o`rganadi⁶⁸. Alison Wray esa ularni “formulaic sequences” deb atab, ular tilni o`rganishda va muloqotda muhim vosita ekanini ta’kidlaydi⁶⁹. Qoliplashgan iboralarning umumiy xususiyatlari;

- barqarorlik: tuzilishi va tarkibi odatda o`zgarmaydi (masalan: “yuqoridagilardan kelib chiqib”, “ushbu hujjat asosida”),
- rasmiylik: ko`pincha rasmiy uslubda qo`llaniladi,
- soddalashtirish: murakkab mazmunni ixcham ifoda etadi,
- stereotiplik: bir xil kasb doirasida doimiy takrorlanadi.

Huquqiy nutqda qo`llangan qoliplashgan iboralar. Professional nutqiy janrlarda qo`llangan qoliplashgan iboralar huquqiy hujjatlar, qonunlar, qarorlar va boshqa yuridik matnlarda tez-tez uchraydi va huquqiy nutqning rasmiyligini, aniqligini hamda standartlashganligini ta’minlaydi.

“Mazkur hujjat asosida ichki ishlar organlari faoliyatini yuridik ta’minalash va ularning qonun ijodkorligi hamda huquqni qo`llash amaliyotida qonuniylikka rioya etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalgaoshiriladi”. Matnda qo`llangan “mazkur hujjat asosida” qoliplashgan ibora bo`lib, hujjatga tayanib amalgaoshiriladigan harakatlar yoki qarorlarni bildiradi.

“Ishga qabul qilish amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi”. Ushbu matnda “amaldagi qonunchilikka muvofiq” iborasi qo`llanib, amalga oshirilayotgan ish mavjud qonunlarga zid emasligini bildiradi.

“Ariza tegishli tartibda ko`rib chiqiladi”. Huquqiy hujjatlarda eng ko`p foydalaniladigan “tegishli tartibda” iborasi belgilangan rasmiy tartib asosida bajarilishi kerakligini bildiradi.

“Qaror qonun asosida qabul qilindi”. Matnda qo`llangan “qonun asosida” qpliplashgan ibora hisoblanib, harakat yoki qarorning qonuniy asosga ega ekanini bildiradi.

Huquqiy hujjatlarda qo`llanilgan qoliplashgan iboralar murakkab, ko`p komponentli va rasmiy-stereotipik tuzilmalardan tashkil topgan iboralardir. Ular huquqiy matnlarning rasmiy, aniq va normativ xarakterini ta’minalashda muhim rol o`ynaydi. Bunday iboralar: huquqiy mazmunning izchil, ikki ma’nolilikdan xoli ifodalanishiga xizmat qiladi, hujjatlarning universal va tushunarli bo`lishiga imkon yaratadi, qonuniylik, protsessual izchillik va normativlik talablariga javob beradi, professional yuridik nutqning o`ziga xos diskurs elementlarini tashkil qiladi.

⁶⁸Kunin, A. V. Kurs frazeologii sovremennoego angliyskogo yazyka. Moscow: Vysshaya Shkola, 1996.

⁶⁹Wray Alison. Formulaic Language and the Lexicon. Cambridge University Press, 2002. – P. 56-76.

Tibbiy nutqda qo'llangan qoliplashgan iboralar. Tibbiy nutq – bu tibbiyot sohasi vakillari o'rtasidagi kasbiy muloqot vositasi bo'lib, undaaniqlik, qisqalik va ma'lumotning ixcham ifodalanishi asosiy mezon hisoblanadi. Shu bois tibbiy matnlarda qoliplashgan iboralarning keng qo'llanilishi kuzatiladi.

Tibbiy diskursda bunday iboralar diagnostika, davolash, kasallik tarixi, shikoyatlar tavsifi, holatning rivojlanishi kabi komponentlarda keng tarqagan. Masalan, “*surunkali yurak yetishmovchiligi*”, “*yuqori nafas yo'llari infeksiyasi*”, “*simptomatik davolash buyurildi*”, “*shoshilinch yordam ko'rsatildi*”, “*hayot uchun xavfli holat*” kabi iboralar tibbiyot matnlarida doimiy uchraydigan qoliplashgan tuzilmalar sirasiga kiradi. Bu iboralar tibbiy matnning kommunikativ aniqligi, normativligi va standartlashuvini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Lingvistik nuqtai nazardan tibbiy qoliplashgan iboralar determinativ-boshqaruvi so'z birikmlari, terminlar kompleksi yoki passiv ifodali strukturalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular ko'pincha obyektivlikni saqlagan holda bemorning holatini neytral tarzda ifodalaydi. Masalan, “*bemorda yurak ritmida o'zgarishlar kuzatildi*” iborasi sabab va natija munosabatini bildirsa, “*laborator tahlillar normada*” iborasi esa diagnostik xulosaning qisqa shaklidagi ifodasidir.

Jurnalistik janrlarda qo'llanadigan qoliplashgan iboralar (formulaic expressions) til birliklari sifatida media nutqining rasmiy, emotsional, hamda ta'sirchanlik xususiyatlarini belgilovchi muhim vositalardandir. Quyida jurnalistik janrlarga xos qoliplangan iboralar misollar bilan keltiriladi:

1. Xabar (news) janrida qo'llanadigan iboralar. Bu janrda aniqlik, rasmiylik va qisqalik talab qilinadi. Shuning uchun quyidagi qoliplangan iboralar ishlatiladi: “*Bugun soat ... da ...*”, “*Voqeja joyidan olingan ma'lumotlarga ko'ra...*”, “*Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra...*”, “*Hozircha boshqa tafsilotlar ma'lum emas*”.

2. Reportaj janrida. Reportajda ko'proq tasviriylik, jonlilik va ko'zlangan holatni “jonli” yetkazish usuli qo'llaniladi. Masalan, “*Voqeja markazidan bevosita...*”, “*Guvohlar aytishicha...*”, “*Biz bu yerda shunday manzaraga duch keldik...*”, “*Hamma narsa ko'z o'ngimizda yuz berdi*”.

3. Intervyu janrida. Savol-javobga asoslangan janr bo'lib, qoliplangan iboralar quyidagicha bo'ladi: “*Suhbatdoshimiz fikricha...*”, “*Savolimizga javoban...*”, “*Intervyu davomidaaytildiki...*”, “*Sizningcha, bu vaziyatda nima qilish kerak?*”.

4. Tahliliy maqolalar janrida. Analitik yondashuv, sabab-oqibat munosabatini yorituvchi iboralar ishlataladi. Masalan, “*Demakki, bu yerdaasosiy omil...*”, “*Shuni unutmaslik kerakki...*”, “*Mazkur holat quyidagicha izohlanadi...*”, “*Tahlillar shuni ko`rsatadiki...*”.

5. Muhammariy maqolalar (editorial). Muhammarrir fikri, gazeta/TV pozitsiyasi bildiriladi. Masalan, “*Bizningcha, eng maqbul yo`l...*”, “*Bu boradagi fikrimiz aniq:...*”, “*Tahririyat fikriga ko`ra...*”, “*Jamiyat bundan zarar ko`radi...*”.

Jurnalistik matnlar tili o`ziga xos uslubiy va strukturaviy xususiyatlarga ega bo`lib, unda qoliplangan iboralar muhim pragmatik yuk ko`taradi. Xususan, xabar, reportaj, intervyu, tahliliy va muhammariy maqolalar kabi janrlarda qo`llanadigan formulaik ifodalar matnning kommunikativ maqsadiga xizmat qiladi. Ular axborotning aniq, lo`nda va ta`sirchan yetkazilishiga xizmat qilishi bilan birga, muallifning yoki tahririyatning pozitsiyasini bildiradi, o`quvchida ishonch hissini uyg`otadi.

Yuqoridaqilardan xulosa qilish mumkinki, qoliplashgan iboralar har bir nutq janrida o`ziga xos ahamiyatga ega. Qoliplashgan iboralarning keng qo`llanishi har bir nutqning o`ziga xos uslubiy xususiyati sifatida baholanadi. Ular muloqot ishtirokchilari o`rtasida huquqiy aniq tushuncha va munosabatlarni shakllantirishda vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu iboralar rasmiylik darajasini oshirsa-da, umumiy auditoriya uchun qiyin tushunarli bo`lishini ta`minlaydi. Ular fikrni mantiqiy izchillikda, emotsiyonal ta`sir kuchi bilan ifodalash imkonini yaratadi, professional muloqotni an'anaviy va madaniy asosda barqarorlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- Karimov R. Professional nutqda qoliplashgan birliklarning o`rni va ahamiyati. Filologiya masalalari, vol. 3, no. 1, 2021, pp. 76-85.
- Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Moscow: Вьспайя Школа, 1996.
- Wray Alison. Formulaic Language and the Lexicon. Cambridge University Press, 2002. – P. 56-76.
- Деметьев В.В. теория речевых жанров. -Москва: Знак, 2010. -C. 33.